



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
IQTISODIYOT VA MOLIYA VAZIRLIGI HUZURIDAGI
“LOYIHALAR VA IMPORT KONTRAKTLARINI KOMPLEKS EKSPERTIZA QILISH MARKAZI”
DAVLAT UNITAR KORXONASI

2026-yil 25 mart № 48/02-BH-2672 100084, Toshkent, Amir Temur shoh ko‘chasi, 107-B



“Biznesni rivojlantirish banki”
Aksiyadorlik tijorat banki

Texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlari
qismida takroriy o‘tkazilgan kompleks ekspertiza natijalari bo‘yicha

XULOSA

Loyiha nomi	Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko‘chasida joylashgan, “Biznesni rivojlantirish banki” Aksiyadorlik tijorat banki ma’muriy binosini mukammal ta’mirlash
Buyurtmachi arizasining raqami va sanasi	2026-yil 24-martdagi 17-07/4351-sonli ariza (reg.60561)
Buyurtmachi	“Biznesni rivojlantirish banki” ATB
Loyihani amalga oshirish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 26-dekabrdagi 888-sonli qarori
Moliyalashtirish manbai	Bankning o‘z mablag‘lari hisobidan
Loyiha hujjatlari bo‘yicha ekspert xulosasi	O‘zbekiston Respublikasi Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertiza qilish Respublika markazi” DM Toshkent viloyati boshqarmasining 2025-yil 21-noyabrdagi 266362-sonli yig‘ma ekspert xulosasi
Obyektning boshlang‘ich (chegaraviy) narxi	287 615 249 894 so‘m QQS bilan, 256 799 330 263 so‘m QQSsiz
Ekspertiza o‘tkazish uchun asos	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 8-yanvardagi PQ-3464-sonli va 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-sonli qarorlari

00000000

“Loyihalar va import kontraktlarini kompleks ekspertiza qilish markazi” DUK “Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko‘chasida joylashgan, “Biznesni rivojlantirish banki” Aksiyadorlik tijorat banki ma‘muriy binosini mukammal ta‘mirlash” obyekt bo‘yicha texnik topshiriqning ish hajmlari va ularning narx parametrlarini o‘rganish natijalariga ko‘ra e‘tirozlar mavjud emasligini, qabul qilingan narx parametrlari bozor konyunkturasiga muvofiqligini va davlat xaridlarini belgilangan tartibda o‘tkazish mumkinligini ma‘lum qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xaridlari to‘g‘risida”gi Qonunining (2021-yil 22-apreldagi O‘RQ-684-sonli) 33-moddasiga muvofiq, davlat xaridlari qiymatining bozor narxlariga muvofiqligini baholash uchun davlat buyurtmachisi ochiq axborot manbalaridagi axborotlardan yoki boshqa ishonchli manbalardan foydalanishi belgilangan.

Shu bilan birga, mazkur Qonunning 34-moddasi uchinchi xatboshisiga ko‘ra tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi tavsifiga aniq tovar belgisiga yoki nomiga, patentga, konstruksiyaga yoki modelga, u mansub bo‘lgan muayyan manbaga yoki ishlab chiqaruvchiga, eksklyuziv vakolatli huquqqa doir talablar yoki havolalar kiritilmasligi kerak, bundan tovarlarning (ishlarning, xizmatlarning) davlat xaridi xususiyatlarini ta‘riflashning boshqa yetarlicha aniq usuli mavjud bo‘lmagan hollar mustasno va bunda davlat xaridining tavsifiga “yoki analogi” degan so‘zlar kiritilishi kerak, bundan tovarlarning bir-biriga mos kelmasligi hollari mustasno.

O‘zbekiston Respublikasi “Raqobat to‘g‘risida”gi (2023-yil 3-iyuldagi, O‘RQ-850-son) Qonunining 29-moddasiga muvofiq tanlov (tender) hujjatlarda tovarning aniq ishlab chiqaruvchisini ko‘rsatish taqiqlangan, bundan tovarlarning bir-biriga to‘g‘ri kelmasligi hollari va qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa hollar mustasno.

Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 11-iyundagi 261-sonli “Markazlashtirilgan kapital qo‘yilmalar hisobidan amalga oshiriladigan investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o‘tish to‘g‘risida”gi qarorining 1-ilovasi 4-bandiga muvofiq buyurtmachi tomonidan aniqlangan boshlang‘ich qiymati tanlov savdolari (tenderlar) o‘tkazishda yo‘nalish hisoblanadi va pudrat shartnomasi (kontrakt) tuzish uchun asos bo‘lib xizmat qilmaydi. Obyektning shartnoma qiymati o‘tkazilgan tanlov savdolari (tenderlar) natijalari bo‘yicha aniqlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi “Shaharsozlik hujjatlarini ekspertizadan o‘tkazish tartiblarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 579-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Nizomning 29-bandiga muvofiq buyurtmachi va loyiha tashkiloti ekspert tashkilotiga taqdim etilgan shaharsozlik hujjatlarining sifati, dastlabki ma‘lumotlarning to‘g‘riligi va qabul qilingan loyiha yechimlari uchun javobgar ekanligi belgilab qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi PQ-332-son qarori talablariga muvofiq taqdim etilgan hujjatlarning ishonchliligi va aynan bir xilligi yuzasidan javobgarlik buyurtmachi zimmasiga yuklanishini bildiramiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 25-iyuldagi “Investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarining loyihaoldi, davlat xaridiga doir tender bo‘yicha xarid qilish hujjatlari va texnik topshiriqlar hamda shartnomalarni ekspertizadan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-332-sonli

qarorning 2-ilovasi 4-bandiga muvofiq Markaz, loyiha-smeta hujjatlaridagi tovarlar (ishlar, xizmatlar) hajmlari va narx parametrlarini asosligi yuzasidan ekspertizadan o'tkazadi.

O'z navbatida, "Toshkent shahar, Shayxontohur tumani, Beruniy ko'chasida joylashgan, "Biznesni rivojlantirish banki" Aksiyadorlik tijorat banki ma'muriy binosini mukammal ta'mirlash" obyekt bo'yicha buyurtmachi loyihaviy yechimlar asosligiga hamda xaridlarda haqqoniylik va holislik prinsipi tamoyillariga rioya qilishga, moliyaviy mablag'lardan samarali foydalanishga, shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq xaridlarni amalga oshirishda shaffoflik va korrupsiyaga yo'l qo'yilmaslikga mas'uldir.

R. Davranov

B. Xusanov

F. Tillayev

L. Dusmuxamedov

Sh. Sarvarov

A. Selivanova